

Amanullayev Abdinabi

*Namangan davlat universiteti Tasviriy va
amaliy san'at kafedrasi p.f.n. professori*

Annotatsiya: “XVII asrning ikkinchi yarmi va XIX asr boshlarida bu yerga rus rassomlari kelib turar, hatto doim shu erda ishlab, Turkiston xalqlarining turmushi va tabiatini yuksak gumanizm pozitsiyasidan turib aks ettirardilar” O’sha paytlarda mamlakatda ijod qilgan rus va boshqa millatga mansub rassomlar jumlasiga Rossiyada kelgan rassom va haykaltaroshlar haqida soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlari: Kompozitsiya, ritm, peyzaj, plener, Perspektiva, obʻyekt, kolorit, kontrast, simmetriya, asimmetriya.

Oʻzbekistonga XX asr boshlaridan Yevropa ijodiy anʼanalariga asoslangan rus tasviriy sanʼati kirib kela boshladi. Mamlakatda tasviriy sanʼatning keng miqyosda rivojlanish bosqichiga erishishi juda koʻp vaqtni talab etgan. Oʻzbekistonda bunday dastgohli tasviriy sanʼat sohasi mavjud emasligi, aksincha miniatyura turi keng rivojlanganligi sababli mahalliy rassomlar boʻlmagan edi. Shu bois, bu sanʼatning shaklanish davrida milliy ijodkorlarning etishib chiqishiga qadar Rossiya va uning tarkibidagi boshqa millatlarga mansub ijodkorlar faoliyati asosiy oʻrin egallagan. “XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida bu erga rus rassomlari kelib turar, hatto doim shu erda ishlab, Turkiston xalqlarining turmushi va tabiatini yuksak gumanizm pozitsiyasidan turib aks ettirardilar”¹ O’sha paytlarda mamlakatda ijod qilgan rus va boshqa millatga mansub rassomlar jumlasiga Rossiyada kelgan rassom va haykaltaroshlar V.V.Vereshagin, N.N.Karazin, D.Kavkazskiy, O.Fedchenko hamda ukrainalik S.Svetoslavskiy, gruziyalik G.Gabashvili, haykaltarosh Mikeshinlar nomini alohida qayd etish mumkin. Ular rangtasvirda Samarqand, Buxoro, Xoʻjand, Toshkent kabi kadimiy shaharlarga, ularning obidalariga atab kartinalar bajarishdi. Bu rasmlarning aksariyati etnografik harakterda amalga oshirilgan va yangi oʻlka, odamlarining etnik koʻrinishlari, kiyinishi, maishiy hayoti, ularni qurshab turgan oʻziga xos muhit tasvirini tashkil etgan.

Yuqorida taʼkidlangan tasviriy ifodaviylik rassom D.V.Velejev ijodida ham seziladi. Masalan, Toshkentdagi maschit va madrasalar, qoʻrgʻon, shahar chekkasi aks ettirilgan “Eski

¹ И.Ирась. Ўзбекистон rassomlari. Тошкент, 1960 й.б.90

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

Toshkent ko'chasi", "Eski Toshkentdagi hovli" kabi grafik tasvirlarini shu o'rinda ta'kidlash mumkin.

Bu asarlar o'zining kompozitsion badiiy ifodaviyligi, yorug'-soyaning o'ziga xos his qilinishi hamda hayotiy lavhalardan foydalanilgani ko'zga tashlanadi.

O'zbekistonga kelib rasm ishlagan rassomlar orasida V.V.Vereshagin ijodi ham ajralib turadi. Rus realistik tasviriy san'ati ustasi Vereshagin Vasiliy Vasilevich 1842-1904 yillarda yashab ijod etgan rus rassomidir. U 1860-63 yillarda tasviriy san'at ta'limini o'sha paytdagi mahoratli rassomlar tayyorlashga ixtisoslashgan Peterburg Badiiy Akademiyasida hamda 1864-65 yillarda Frantsiya (Parij shahrida) J.L.Jeroma ustaxonasida olgan.

U rus rassomlari orasida ijodiy va xarbiy safarlarda bo'lgan rassom bo'lib, O'rta Osiyoga rus qo'shinlari bilan birga kelib, urush davrida chizgilar ishlagan.

Ushbu rassom ijodi bo'yicha fikr yuritishda olib borilgan ayrim tadqiqotlarga murojaat qilamiz. Jumladan, Namangan davlat universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishi bitiruvchisi M.G'oyibboeva tomonidan bajarilgan bitiruv malakaviy ishida ham bu ijodkor haqida ilmiy mulohazalar kuzatiladi. Jumladan, Vereshagen ijodi "Ko'plab rus tilidagi adabiyotlarda yozilishicha xalqlar boshiga urush oqibatida tushgan jabr-sitamlarga qarshi, xalqlarni o'z ozodligini kuylab ijod qilgan va buni o'z asarlarida yaxshi ochib bergan ekan. Aslida ham shundaymi? Yoki urush dahshati, daryo misoli oqqan qonlar uni o'ziga jalb qilmaganmikin? Balkim, uni o'zi urush oqibatidan lazzatlangandur?! Uni vujudida jangchi va rassom ruxi joylashgan bo'lsa, ulardan qay biri ustun turgan? Shu kabi ko'plab savollarga javob izlash hamda tarixiy voqealarga oydinlik kiritish maqsadida V.Vereshaginni O'rta Osiyodagi, xususan O'zbekistondagi faoliyatini o'rganib, taxlil qilib chiqishni maqsad qilib oldik. 1867 yili Parijda Peterburgga qaytib kelgan Vereshagin Turkiston general-gubernatori va Turkiston harbiy qo'shinlari bosh qo'mondoni etib tayinlangan K.P.Kaufman o'ziga yosh, iqtidorli rassomni xizmatga olmoqchi ekanligi haqida bilib qoladi"² Vereshagen qo'mondon bilan uchrashib uning xizmatiga ko'ngilli ekanligini bildiradi va shundan so'ng xarbiy yurishlarda bo'lib turli rasmlar chizish bilan shug'ullangan. "1867 yilining avgust oyida Vereshagin O'rta Osiyoga yo'lga chiqadi. Bu paytga kelib u yaxshigina qalamtasvir ustasi bo'lib yetishadi, ammo rangtasvir sohasida yetarli tajribaga ega emas edi. U Peterburgdan Volgagacha, undan Orenburggacha, Orenburgdan Toshkent va Samarqandgacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tadi. Safar tassurotlari haqida u yo'l safari qaydnomalarida yozib boradi va ularni oldiniga gazetada, keyinchalik esa "Vsemirniy puteshestvennik" jurnalining 1874 yil may sonida illyustratsiyalari

² M.G'oyibboyeva. Rus rassomi V.Vereshaginning O'rta Osiyodagi ijodiy faoliyati. BML., Наманган, 2014 y., 12 b.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

bilan birga nashr qildiradi. Umuman rassomni Turkistonga qilgan sayohati uni adib sifatida ham rassom sifatida ham eng sermahsul davri deyish mumkin”³.

Rassom qalamiga mansub “Ko‘knorixo‘rlar”, “Zindonda”, “Qul savdosi”, “Amir Temur darvozasi oldida” kartinalarni ta’kidlash mumkin. Uning "Turkiston" deb nomlangan turkumi Parij va Peterburg ko‘rgazmalariga qo‘yildi.

XIX asr oxirida O‘zbekistonda bo‘lgan rassomlar orasida portret, manzara, natyurmortlar ustasi Tibilisi Badiiy Akademiyasi professori Gabashvili Georgiy Ivanovichni ham misol keltirish mumkin. U mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi ko‘hna shaharlarida bo‘lib, mahobatli me‘morlik obidalarining o‘ziga xos ko‘rinishlarini ishlagan.

Uning 1897 yili ishlangan “Samarqanddagi bozor” asarini shu o‘rinda ta’kidlash mumkin. Ko‘hna me‘morlik yodgorliklarini o‘ziga xos ulug‘vorligi, uning sharqona me‘morlik an‘anasining yuksak darajadagi ko‘rinishini maroq bilan ishlagan va boy taassurod qoldirgan rassomlar orasida yana Ukrainalik rassom S.I. Svetoslavskiyning “Bibixonim oldidagi bozor” (1910 y) kartinasi ham e’tiborlidir. Unda shunday viqorli tarixiy obida orqali o‘tmishi ulug‘ bo‘lgan yurtni aks ettirishga intilgan.

O‘rta Osiyo mamlakatlariga shu jumladan, O‘zbekistonga keluvchi rassomlar soni XX asr boshlarida yanada ko‘paydi. Masalan, rus rassomlari Pavel Kuznetsov, Petrov-Vodkin, Frans Rubo, haykaltarosh O.Mikeshinlarni ham shu o‘rinda misol keltirish mumkin. Ular ham bu o‘lkaning o‘tmish tarixi, boy madaniy merosi hisoblangan me‘morlik obidalarini zo‘r ishtiyoq bilan tasvirladilar.

XX asr boshlarida O‘zbekistonda ijod qilgan rus rassomlari ijodini o‘rganishda ularni uch guruhga ajratish mumkin: **birinchisi** bu o‘lkaga vaqtincha kelib ijod qilib ketgan rassomlar - V.V.Vereshchagin, N.N.Karazin, D.Kavkazskiy, S.Yudin, O.Fedchenko hamda Ukrainalik S.Svetoslavskiy, gruziyalik G.Gabashvili, D.V.Velejev, Pavel Kuznetsov, Petrov-Vodkin, Frans Rubo, K.Korovin, R.Zommer, haykaltaroshlar Mikeshin va O.Mikeshinlar; **ikkinchisi** o‘z ijodini butunlay O‘zbekiston hayotiga bag‘ishlagan va o‘zlari uchun Vatan topgan rassomlar – M.A.Arinin, A.Nikolaev (Usta Mo‘min), P.V.Gan, M.E.Novikov, M.A.Gvozdikov, F.I.Grishenko, V.N.Eremyan, A.N.Ivanov (haykaltarosh), I.S.Kazakov, V.E.Kaydalov, N.V.Kashina, Z.M.Kovalevskaya, S.A.Malt, V.N.Kedrin, O.K.Tatevosyan, V.I.Ufimsev; **uchinchisi** shu mamlakatda tug‘ilib ijod yo‘liga kirgan rus millatiga mansub – L.L.Bure, A.M.Venediktov, A.Volkov, V.I.Evenko, P.M.Nikiforov, K.P.Cheprakov kabi rassomlarga ajratish mumkin.

³ Ўша манба 13 б.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

Mazkur uch guruxning birinchisiga mansub ijodkorlar haqida kengroq ma'lumot olish maqsadida adabiyotlar kuzatildi. Mavjud adabiyotlarda ular haqida umumiy tushunchalar berilgan xolos. kelgusida olib boriladigan boshqa tadqiqotlar uchun dolzarb mavzu sifatida o'z ahamiyatini saqlab qoladi.

Bu o'z navbatida bu mavzuda hali qilinishi lozim bo'lgan ilmiy izlanishlar ham talaygina ekanligini ko'rsatadi. Bu esa mazkur masala san'atshunoslik oldida turgan dolzarb mavzulardan ekanligini ko'rsatadi. Va Yuqorida birinchi gurux rassomlari haqida ma'lumotlar keltirildi. Qolgan ikkinchi va uchingi guruhdagi rassomlar esa keyingi boblarda alohida va batafsil bayon etiladi. Endi, yana XX asr boshlarida O'zbekiston tasviriy san'atining shakllanish jarayoni tavsifiga qaytamiz. O'zbekiston tasviriy san'ati uzoq tarixiy rivojlanish bosqichini bosib o'tdi.

Bu tarixiy bosqich tarkibidan o'rin olgan XX-asrdagi ijodiy bosqich alohida ajralib turadi. XX-asr boshlariga kelib, tasviriy san'at o'zining ijodiy-badiiy yo'nalishini o'zgartira boshladi. Masalan, tasviriy san'atning miniatyura turi endilikda etakchiligini yo'qotib, Yevropa realistik tasviriy san'ati ijodiy yo'nalishlari rus tasviriy san'ati vositasida kirib kela boshladi. Bu bir jihatdan uzoq yillar mobaynida shakllanib rivojlangan miniatyura oldingi maqomini o'zgartirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan tasviriy san'atni yangi tarkibda shakllanishini yuzaga keltirib, jahon tasviriy san'ati ijodiy an'analari bilan hamnafas rivojlanishini vujudga keltirdi. XIX-asr oxirlaridan O'zbekistonda me'morlikda ham o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Bu yillardan boshlab rus me'morligi an'analari ham kirib kela boshladi. Toshkent va Farg'ona shaharlariga rus millatiga mansub turli kasb egalari ko'chib keldi. Ularni ish bilan ta'minlash, maktablar ochish va boshqa maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq turli qurilish ishlarining boshlanishi natijasida yangi tipdagi me'morlik kirib kela boshladi. XX-asr boshlarida O'zbekistonga rus arxeologlarining kelishi munosabati bilan arxeologiya sohasi ham kirib keldi. Mamlakatimizning ko'plab xududlarida arxeologik qazishmalar o'tkazildi. Birgina Namangan viloyatining tarixiy shahalarini misol qilib olaylik. Namangan xududida joylashgan qadimgi CHust, Kosonsoy, Aysi, Pop tumanlarida joylashganligi taxmin qilingan qadimgi shaharlar ochib o'rganildi. Ularni o'rganishda N.SHerbina, V.Bartold, M.Masson, V.Jukov, A.Brenshtam, A.Okladnikovlar, keyinroq esa o'zbek arxeologlari YA.G'ulomov, O'.Islomovlar ham qazilma ishlarini olib borgan. "Namangan viloyatida "CHust madaniyati" va "Eylaton madaniyati" deb atalgan madaniy qatlamlar rivojlangan bo'lib, unda eradan avvalgi ming yilliklarga oid ko'plab ashyoviy dalillar topilgan. Bu madaniyatga oid materiallar Chustning "Buonamozor", Eylatonning "SHaxrixaybar", Kosonning "Mug'", Popning "Munchoqtepa", To'raqo'rg'onning

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

“Axsikent” kabi shaharva qishloqlaridan topilgan”⁴. Bu kabi arxeologik izlanishlar natijasida mamlakatimizning qadimgi shahar qoldiqlari o‘rganila boshladi. “Jumladan shu yillarda arxeolog olimlar Afrasiyobda qazilma ishlarni boshlaganliklari, Bibixonim yodgorligi devoriy rasmlarini o‘rganish, ulardan ko‘chirmalar olishga etibor berilganligini, Ulug‘bek madrasasining og‘a boshlagan minoralarini tiklash masalalari kun tartibida qo‘yilganligini e‘tirof etish mumkin”⁵.

XX-asr boshlaridagi O‘zbekiston tasviriy san‘atining shakllanishida asr boshlaridan rus tasviriy san‘atining kirib kelishi natijasida Toshkent, Samarqand, keyinroq esa Farg‘onada rassomlik bilim yurtlarining ochilishi katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu bilim yurtlarda rus rassomlari mahalliy yoshlarga rassomlik sirlarini o‘rgatdilar. Natijada rus rassomlari bilan bir qatorda ijod qila oladigan o‘zbek rassomlari paydo bo‘la boshladi.

O‘zbekiston tasviriy san‘ati bilan shug‘ullangan olim san‘atshunoslik fanlari nomzodi Ne‘mat Abdullaev XIX asr oxiri XX asr boshlarida tasviriy san‘atda o‘zbek rassomlari ijodi ko‘rina boshlaganligi to‘g‘risida ma‘lumot berdi. turli afsonaviy timsollar ustida ish olib borganligi, Jumladan, Ishoqxon To‘ra Junaydullaxo‘ja Sunnatullaxo‘ja o‘g‘li (1862-1937), Sirojiddin Siddiq Xondaqliqiy (1884-1934) «Ming bir kecha», Sa‘adiyning «Guliston» asariga rasmlar chizganligi va portretlar (masalan Tavallo portreti), Mirzo Xayrullo, Mullo Xusniddin, Mullo Ortuq, Rahmatiy, Mulla Abdulhamid Jalolobodiy kabi rassom va xattotlar ham tasviriy san‘atda targ‘ibiy ishlarga moil rasmlar ishlaganligi, mahalliy tadbirkorlar A.Navoiy, Firdavsiy asarlarini tosh bosmada chop ettirib ularni rasmlar bilan bezatganligi, shuningdek 1915 yili “Go‘r ug‘li “dostoni chop etilib rasmlar bilan bezatilganligi hamda 1874 yili Qo‘qonda tug‘ilgan shoir va rassom Ibroxim Davron ham faolroq ijod qilganligi, tarli mavzularda rasmlar ishlaganligi, o‘zining sherlarini rasmlar bilan bezaganligi, xajviy rasmlar, portret va janrli kompozitsiyalar ishlaganligi va bu kompozitsiyalarda xotin qizlarning og‘ir kundalik turmush tarzi, hayotiy voqealarni tasvirlaganligini ham e‘tirof etadi⁶. XIX asr oxirida O‘zbekistonda bo‘lgan rassomlar orasida portret, manzara, natyurmortlar ustasi Tibilisi Badiiy Akademiyasi professori Gabashvili Georgiy Ivanovichni ham misol keltirish mumkin. U mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi ko‘hna shaharlarida bo‘lib, mahobatli me‘morlik obidalarining o‘ziga xos ko‘rinishlarini ishlagan. Uning 1897 yili ishlangan “Samarqanddagi bozor” asarini shu o‘rinda ta‘kidlash mumkin. Ko‘hna me‘morlik yodgorliklarini o‘ziga xos ulug‘vorligi, uning sharqona me‘morlik an‘anasining yuksak darajadagi ko‘rinishini maroq bilan ishlagan va

⁴ Д.Пўлатов. Наманган ҳайкалтарошлик санъати. Наманган. 2000 й., 9-б

⁵ Н.Абдуллаев. Ўзбекистон санъати тарихи. Т., 2007 у. 125 б.

boy taassurod qoldirgan rassomlar orasida yana Ukrainalik rassom S.I. Svetoslavskiyning "Bibixonim oldidagi bozor" (1910 y) kartinasi ham e'tiborlidir. Unda shunday viqorli tarixiy obida orqali o'tmishi ulug' bo'lgan yurtni aks ettirishga intilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Amanullaev, A. (2022). Specific Factors Of Comprehensive Study And Analysis Of The History And Culture Of The Uzbek People. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(02), 1-4.
2. Amanullaev, A. A. (2022). Current Issues In The Training Of Future Teachers Of Fine Arts. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(03), 1-3.
3. Абдимуминова, Д. А., & Амануллаев, А. А. (2018). Использование Традиций Этики" Устоз-Шогирд"(Мастер И Ученик) На Занятиях Прикладного Искусства. *Novainfo. Ru*, 2(85), 203-206.
4. Abdumo'minovich, A. A. (2023). Qadimda Ustalarining Shogird Tayyorlashda O'Ziga Xos Milliy Ananaviy Asoslari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1440-1447.
5. Abdumo'minovich, A. A. (2023). Bo'lg'Usi Tasviriy San'At O'Qituvchilarini Tayyorlashda Hozirgi Davr Dolzarb Masalalari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1423-1429.
6. Sodiq, Am (2022). Tasviriy San'At Asarlarida Kopozltsiyaning Baddiy Qimmatini Tahlil Va Tashrib Bera Va O'Quvchilarning Baddiy Idrok Haqidagi Bilimlarini Oshirish. *Xalqaro Jurnal Ijtimoiy Fan Va Interdisplinar Research Issn: 2277-3630 Ta'Sir Faktori: 7.429*, 11 (03), 149-151.
7. Sodiq, A. M. (2023). Bolajak Tasviriy Sanat Oqituvchilarida Badiiy-Ijodiy Mahoratlarini Rivojlantirishda Manzara Janridan Foydalanish Usullari. *Journal Of Universal Science Research*, 1(5), 1430-1439.
8. Muhammad, A. (2022). Peculiarities Of The Scientific Study Of The Relationship Between Composition And Color In The Genre Of Landscape. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(02), 5-8.
9. Abdumo, M. A. O. G. L. (2022). Ochiq Havoda Insonlarni Turli Xolatlaridan Tasvirlar Bajarish Texnologiyalari. *Science And Education*, 3(9), 474-480.
10. Abdumo'minova, D. A. Q. (2022). Talabalarga Tasviriy San'Atdan Mashg'Ulotlarni Tashkil Etishda Qalamtasvirning Nazariy Qonunlardan Foydalanish. *Science And Education*, 3(9), 467-473.
11. Dildora, A. (2022). Training Of Professionals With Positive Human Qualities In The Lessons Of Fine And Applied Arts In The Education Of The Modern Spirit. *International Journal Of Social Science & Interdisciplinary Research Issn: 2277-3630 Impact Factor: 7.429*, 11(03), 152-154.
12. Dildora, A. (2022). The Emergence Of Some Modern Problems In The Field Of Architecture In The Modern Construction Of Ancient Cities Rich In Historical Monuments And Relics. *Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review Issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(02), 9-11.
13. Кизи, А. Д. А. (2023). Разработка Технологий Практического Обучения Учащихся Изобразительному Искусству. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(4), 201-203.
14. Абдумуминов, М. А. Ў. (2022). Развитие Творческих Способностей Студентов Путем Изучения Произведений Современных Узбекских Художников-

Живописцев. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(2).

15. Sadiq, A. M. (2024). Studying The Stages Of The Historical Development Of The Landscape Genre And Its Importance In The Development Of The Artistic And Creative Skills Of Future Visual Arts Teachers. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 18(01), 28-32.
16. Abdinabi, A. (2024). The Compositional Structure Of The Works Of Artists Who Created Still Life In Painting Is Their Scientific Analysis. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 18(01), 17-21.
17. Қизи, А. Д. А. (2023). Разработка Технологий Практического Обучения Учащихся Изобразительному Искусству. *Innovation: The Journal Of Social Sciences And Researches*, 1(4), 201-203.
18. Dildora, A. (2024). Teaching Composition To Students In Fine Art Educational Institutions And Developing Artistic And Creative Thinking As A Pedagogical Problem. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 18(01), 22-27.
19. Ubaydullayev, M. A. (2023). Development And Popularization Of Methods Of Teaching Students Of The Direction Of Fine Arts Through Information Technology. *Евразийский Журнал Академических Исследований*, 3(2), 166-169.
20. Убайдуллаев, М. А. (2022). Проблема Профессиональной Компетентности В Подготовке Будущих Учителей Изобразительного Искусства В Интерпретации Зарубежной Педагогике. *Science And Innovation*, 1(Jssr), 177-182.
21. Pulatov, D., & Ubaydullaev, M. (2023). Formation Of New Creative Directions In Modern Fine Art Of Uzbekistan. *Solution Of Social Problems In Management And Economy*, 2(2), 34-39.
22. Saymamutovich, P. D., & Akhmadjonovich, U. M. (2023). The End Of The 20Th Century The Beginning Of The 21St Century Uzbekistan Magnificent Sculpture. *Open Access Repository*, 4(2), 102-107.
23. Убайдуллаев, М. А. (2022). Композиция Асосларининг Тасвирий Санъат Дарсларида Кулланилиши. *Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences*, 2(12), 329-332.
24. Abdinabi, A. (2024). The Compositional Structure Of The Works Of Artists Who Created Still Life In Painting Is Their Scientific Analysis. *International Journal Of Research In Commerce, It, Engineering And Social Sciences Issn: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 18(01), 17-21.
25. Abdinabi, A., & Rayhona, T. (2024). Specific Characteristics Of The Foundations Of Artistic Creativity In The Types And Genres Of Fine Art. *Web Of Teachers: Inderscience Research*, 2(3), 219-228.